



# Alternativa Film Labs Markaziy Osiyoda yangi ta'lim tsiklini ishga tushirib, "Development Lab" dasturiga yig'inni e'lon qiladi

Alternativa film loyihasining asosiy yo'nalishlaridan biri - bu **Alternativa Film Labs** bepul o'quv dasturlari bo'lib, ular o'z yo'nalishlarining turli bosqichlarida o'z mamlakatlari kino sanoatini rivojlantirishga qiziqqan, mahalliy ijtimoiy muammolarni o'rganayotgan va mahalliy hamjamiyatlarga yordam bermoqchi bo'lgan kino ijodkorlariga mo'ljallangan. Alternativa Film Labs dasturlari 2024-yilda Markaziy Osiyoda yana bir bor o'tkaziladi. Ular kinolaboratoriyadan iborat: Teen Lab (Toshkentda, yoz paytida), Impact Lab (Bishkekda, kuz paytida) va Development Lab. "Development Lab" da ishtirok etish uchun Open Call **1 mart** kuni ochilib, 28 aprelgacha davom etadi.

**Development Lab** ijodiy laboratoriyasi o'z ssenariylarini yozish va prodyuserlik ko'nikmalarini rivojlantirish, yangi professional aloqalar o'rnatish istagida bo'lgan Markaziy Osiyolik kinoijodkorlar uchun mo'ljallangan. Laboratoriyaning maqsadi kelgusida potentsial hamkorlar va xalqaro kino institutlari, shuningdek, mintaqadagi mijozlar va prodyuserlarga taqdim etish uchun kino loyihasini ishlab chiqishdan iborat. Development Lab o'qituvchilari xalqaro festivallar rejissyorlaridan tortib, muvaffaqiyatli prodyuserlar va xalqaro ekspertlargacha, kino sohasida katta tajribaga ega kino amaliyotchilari bo'ladi. Ular orasida, "About Productions" kinokompaniyasining prodyuseri, rejissyor va Doha kino institutining o'qituvchisi - Miriam Sassin (Livan).

Development Lab ikkita yo'nalish bo'yicha o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan: **prodyuserlik bo'limi va ssenariy yozish bo'limi**. Prodyuserlik bo'limi xalqaro va mintaqaviy moliyalashtirishni izlash uchun kontseptsiyadan tortib, to'liq hujjatlar to'plamigacha bo'lgan loyihani ishlab chiqishga bag'ishlangan. Ssenariy bo'limi - to'liq metrajli badiiy film ssenariysini dastlabki bosqichdan tayyor matngacha to'liq ishlab chiqish. Bo'limlar bir vaqtning o'zida o'tkaziladi va uchta modulni o'z ichiga oladi: birinchisi iyun oyi boshida Buxoroda (O'zbekiston), ikkinchisi - avgust oyi oxirida onlayn, final bosqich - oktyabr oyi oxirida Almatada (Qozog'iston) bo'lib o'tadi.

"Development Lab" da badiiy metrajli badiiy film loyihalari dastlabki rivojlanish bosqichida bo'lgan, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonlik kinoijodkorlar ishtirok etishi mumkin. Bundan tashqari, har bir bo'limda kinoloyihaga hali ega bo'lmaganlar, jumladan, kino sohasida o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lgan adabiyot, jurnalistika, dramaturgiya, tasviriy san'at yoki vlogging sohalari mualliflari uchun joy ajratilgan. Bunday ishtirokchilar hamkasblarining loyihalari ustida ishlashadi. Laboratoriyada ishtirokchilari soni 20 tadan oshmaydi (har bir bo'limda 10 tadan ko'p bo'lmaydi). Dastur modul o'tkaziladigan joylarga yo'l va turar joy haqini qoplaydi. Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar va ularning loyihalari haqida to'liq ma'lumot [alternativa.film](http://alternativa.film) saytida e'lon qilingan.

"Development Labs" kinolaboratoriyasiga tanlov natijalari **16-may** kuni e'lon qilinadi.

**Anna Gudkova, Alternativa Film Labs rahbari:** “Uzoq muddatli o’quv dasturlari - bizning ta’lim tashabbuslarimizning asosiy, eng muhim va tizimni tashkil etuvchi qismidir. "Development Lab" da bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilamiz. Markaziy Osiyoning iqtidorli kinoijodkorlariga ssenariy yozish va prodyuserlik mahoratini oshirish imkoniyatini beribgina qolmay, balki professional muhitni ham yaratamiz: mualliflar ishtirokchi prodyuserlar orasidan moliyaviy hamkorlarni topa oladilar, ishtirokchi prodyuserlar esa, laboratoriyada yaratiladigan loyihalar bilan yaqinroq tanishishlari mumkin bo’ladi. Dasturning o'ta muhim elementi - loyihalar pitchingidir. Unga jahon kino sanoati mutaxassislarini taklif qilishni rejalashtirmoqdamiz. Ular taqdimotda jonli yoki onlayn ishtirok etadilar. Shu yo’l bilan, biz, mintaqaning turli davlatlaridan kelgan ishtirokchilarni kuchli hamjamiyatga birlashtirishga va Markaziy Osiyo kinosining yangi to’lqinining istiqbolli filmlarini ishlab chiqarishga tayyorlashga yordam bermoqchimiz”.

---

Alternativa Film loyihasi - inDrive global texnologik kompaniyasi tomonidan 2023 yilda Markaziy Osiyoda ta'sis etilgan xalqaro notijorat loyihasidir. Loyiha rivojlanayotgan kino sanoatining kinoijodkorlarini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish maqsadida yaratilgan bo'lib, uning vazifasi - dunyo haqidagi tushunchamizni kengaytira oladigan va uni yaxshi tomonga o'zgartirishga yordam beradigan ijodkorlarning xalqaro miqyosda taniqligini oshirish, ularni professional o'sishi uchun resurslar bilan ta'minlash va mahalliy kino sanoati va hamjamiyatlarini rivojlantirish uchun kuchli turtki berishdir.

Alternativa Film Labs - kino ijodkorlari uchun bepul ta’lim dasturlari bo’lib, kino va ijtimoiy tashabbuslar bo’yicha ko’nikma va vositalarni beradi, ular ijodkorlarga o’z loyihalarini kuchaytirishga, tomoshabinlar sonini oshirishga, va tushuncha yoki resurs yetishmasligi sabab haligacha ekranda namoyish etilmagan muhim voqealarni aytib berishga yordam beradi. 2023-yilda Alternativa Film Labs jamoasi Almatada impakt laboratoriyasi (Impact Lab) va Markaziy Osiyolik prodyuserlar va rejissyorlar uchun pitching bo’yicha onlayn kurs (Pitching treningi), shuningdek, Bishkekda o’smirlar uchun kinoseminar (Teen Lab) o’tkazdi. Dastur o’qituvchilari va murabbiylari orasida inson huquqlari va ijtimoiy masalalarga bag’ishlangan Gaaga xalqaro kinofestivalning badiiy rahbari - Margi de Koenig; Daniyel Turkov, Think-Film Impact Production media kompaniyasi asoschisi; Vim Vanacker, Kann kinofestivali qisqa metrajli filmlar tanlovining komissiya a'zosi, pitching bo'yicha ekspert ham bo'lgan. Alternativa Film Labs 2023 g'oliblari Europe Film Market doirasida o'z loyihalarini taqdim etish va rivojlantirish uchun Berlinga jo'nab ketishdi: Daniel Berger Fiction Toolbox dasturi, Banu Ramazanova Doc Toolbox dasturi ishtirokchisi bo'ldilar; Diana Jilkenova va Elyor Ne'mat Europe Film Market akkreditatsiyadan o'tishdi, Alternativa Impact Lab g'olibi Assel Aushakimova Berlinaleda, Talent Project Market pitchingida ikkinchi o'rinni egalladi.

---

## Media uchun kontaktlar

Anna Vasilyeva

anna.vasilyeva@alternativa.film